QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2021.FIL.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TURSUNOV MUHAMMADSOLIH SA’DIN O‘G‘LI

O‘ZBEK LINGVISTIK KORPUSINI YARATISH TAJRIBASIDAN (KONKORDANS, TOKENAYZER, LEMMATAYZER, RAZMETKALASH DASTURLARI ASOSIDA)

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qo‘qon – 2024

UO‘K: 811.512.133'1:004.45(=512.133)

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on Philology sciences

**QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2021.FIL.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

TURSUNOV MUHAMMADSOLIH SA’DIN O‘G‘LI

O‘ZBEK LINGVISTIK KORPUSINI YARATISH TAJRIBASIDAN (KONKORDANS, TOKENAYZER, LEMMATAYZER, RAZMETKALASH DASTURLARI ASOSIDA)

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qo‘qon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3991 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Qo‘qon davlat pedagogika institutining veb-sahifasida (www.kspi.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Karimov Suyun Amirovich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Abduraxmonova Nilufar Zaynobiddin qizi** filologiya fanlari doktori, professor
	Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna filologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qo‘qon davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “_3_” _avgust_ soat _9^00_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150700, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel: (99873) 542-38-38; faks: (99873) 542-11-43; e-mail: quqondpi@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Qo‘qon davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_28_ - raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150700, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel: (99890) 508-64-42; e-mail: qdpi_arm@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “_9_” _iyul_ kuni tarqatildi.
(2024-yil “_9_” _iyul_ dagi _21_ - raqamli reyestr bayonnomasi)

M.X. Hakimov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

A.To‘raxojayeva
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, filol. f.f.n., dotsent

D.Jamoliddinova
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi taraqqiyotida har bir xalq oʻz tilining milliy mavqeyini oshirish, uning asl holatini saqlash, kelajak avlodga butunligicha yetkazish maqsadida milliy til korpuslarini yaratmoqdalar. Zamonaviy tilshunoslikning asosiy yoʻnalishlaridan boʻlgan kompyuter lingvistikasi va korpus lingvistikasi rivojlanib, bu soha doirasida olib borilgan tadqiqotlarda milliy til va uning sofligini saqlashga keng e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, milliy til korpusining dasturiy ta’minotini yaratish, uni internet tarmogʻida ishlashini ta’minlash, milliy tilni kompyuter yordamida lingvistik aspektda tadqiq etish muhim masala hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida tilning axborot texnologiyalari bilan integratsiyasi, uni qayta ishlash, raqamlashtirish, elektron shaklda saqlash va turli tadqiqotlar olib borishda milliy til korpuslaridan samarali foydalanilmoqda. Chunonchi, til korpuslari nafaqat elektron jamlanma, balki til oʻrganuvchilarga, turli lingvistik tadqiqotlarni olib boruvchilarga qoʻllanma hamda leksikografik manba hisoblanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda olib borilayotgan tilga doir islohatlarda ham oʻzbek tilining sofligini saqlash, uni dunyoga tanitish masalasi koʻtarilmoqda. Binobarin, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5850-son Farmonida davlat tilining axborot va kommunikasiya texnologiyalari, xususan, internet jahon axborot tarmogʻida munosib oʻrin egallashini ta’minlash, oʻzbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish muhimligi ta’kidlandi[1]. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6084-sonli farmoni[2] bilan tasdiqlangan “2020-2030-yillarda oʻzbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da oʻzbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy ma’lumotlarni oʻzida jamlagan elektron koʻrinishdagi oʻzbek tili milliy korpusini yaratish vazifasi koʻrsatib oʻtilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanib, oʻzbek tili milliy korpusini yaratish va uning dasturiy ta’minotini ishlab chiqish ustuvor va dolzarb vazifadir.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti”ni tashkil etish toʻgʻrisida”, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5850-son Farmoni. // Xalq soʻzi, 2019 yil 22 oktyabr. №218 (7448).

[2] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktyabrdagi “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6084-sonli farmoni (https://lex.uz/docs/5058351).

“Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Zamonaviy korpuslar – bu ma’lum bir tilda, elektron shakldagi matnlar toʻplamiga asoslangan axborot-ma’lumot tizimidir[3]. Har bir korpus filologik yondashuv bilan matnlar ustida ishlash uchun, albatta, lingvistik apparat va dasturiy ta’minot bilan ta’minlanishi lozim.

Birinchi korpus 1960-yillarda AQSHda Braun universitetida Genrix Kuchera va Nelson Frensis tomonidan yaratilgan[4] – u hozirgi Amerika inglizlarining Braun universiteti standart korpusi deb ataladi. Dastlabki korpuslarni quyidagicha baholash mumkin: boshlangʻich holatdagi hajmi 1 million soʻzdan iborat; unda lemmatizatsiya va razmetkalash yoʻq. Bunday korpuslar na hajmi boʻyicha, na tilni qamrab olish darajasi, na ma’lumotlar bilan ta’minlangan matnlar tarkibi boʻyicha talablarga javob bermaydi.

Bugungi kunda korpuslar lugʻatlar va grammatika kabi tilshunoslikning ajralmas qismiga aylandi. Korpuslarning paydo boʻlishi tilshunoslikning yangi yoʻnalishlaridan biri korpus lingvistikasi rivojini sifat bosqichiga koʻtardi. Dunyo miqyosida tan olingan lingvistik korpuslarga Rus milliy korpusi *(https://ruscorpora.ru/new/)*, Britaniya milliy korpusi *(http://www.natcorp.ox.ac.uk/, https://www.english-corpora.org/bnc/)*, Turk milliy korpusi *(https://www.tnc.org.tr/)*, Amerika milliy korpusi *(http://www.anc.org/)* kabilarni kiritish mumkin.

Matnlarni qayta ishlash, tokenlash va lemmalash, yarim avtomat morfologik razmetkalash, algoritmlar yordamida yaratilgan dasturiy ta’minotlar koʻplab xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, Lourens Entoni, A.E.Polyakov, C.A.Chapelle, A.A.Abroskin, D.V.Sichinova, L.Yu.Sipisina, Oliver Meyson, Kagri Kolekin, V.P.Zaxarov, Yeshim Aksan, A.I.Izotov, Andreas Mengel, R.Garabik, Djavdet Suleymanov, Alfiya Galiyeva[5] va boshqalarning ishlarida korpus lingvistikasi masalalari oʻrganilgan.

[3] Николаев И.С., Митренина О.В., Ландо Т.М., Прикладная и компьютерная лингвистика. Книга – Санкт Петербург: СпбГУ. 2016. – С. 320. – ISBN 978-5-9710-3472-8.

[4] Kholkovskaia O., Role of the Brown Corpus in the History of Corpus Linguistics. Poster–Prague, 2017. – 1-4 p.

[5] Laurence A., AntConc: Design and Development of a Freeware Corpus Analysis Toolkit for the Technical Writing Classroom, IEEE International Professional Communication Conference Proceedings, 2005.– 29-737 p.; Поляков А.Э., Технология подготовки информации в национальном корпусе русского языка. http://www.ruscorpora.ru/ new/corpora-biblio.html.; Chapelle C.A. Computer applications in second language acquisition: Foundations for teaching, testing, and research. Cambridge, England: Cambridge University Press, 2001.; Аброскин А.А., Поиск

O‘zbek tilshunosligida ham ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar milliy til korpusi va uning dasturiy taminotlari xususida ilmiy izlanishlar olib borganlar. Tabiiy tilni qayta ishlash, statistik tahlillar hamda korpus lingvistikasi bo‘yicha A.Po‘latov, S.A.Karimov, A.Qarshiyev, S.Matlatipov, U Tukeyev, M.Aripov, B.Mengliyev, N.Abdurahmonova, Sh.Hamroyeva[6] va boshqa ko‘plab tadqiqotchilarimiz[7] o‘zbek tilidagi muammolarni hal etish va ish samarasini oshirish maqsadida tilshunoslikda axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini yaratdilar.

по корпусу: проблемы и методы их решения. Национальный корпус русского языка. – Нестор-История, 2009. – С.277–282.; Сичинава Д.В. Параллельные тексты в составе национального корпуса Русского языка: новые языки и новые задачи, национальный корпус русского языка: Исследования и разработки. – Москва, 2019. – С.41-60.; Щипицина Л.Ю. Информационные технологии в лингвистике. Учебное пособие. – Москва: Издательство «ФлИнта», 2013.; Mason O., Developing Software for Corpus Research, International Journal of English Studies, IJES, vol. 8 (1), 2008, pp. 141-156.; Çöltekin Ç., A Freely Available Morphological Analyzer for Turkish, Proceedings of the 7th International Conference on Language Resources and Evaluation (LREC 2010) – 820–827 p.; Victor Zakharov, Corpora of the Russian Language, Conference: 16th International Conference, DOI:10.1007/978-3-642-40585-3, TSD 2013.; Aksan Y., Aksan M. Building a National Corpus of Turkish: Design and Implementation, 2009. – 299-310 p.; Изотов И. Чешский национальный корпус и аналитический императив: опыт корпусного анализа малоупотребительных и маргинальных языковых единиц. Вестник огу №2/февраль, 2007. – С.4-11.; Mengel A., Lezius W., An XML-based representation format for syntactically annotated corpora, In Proceedings of the Second International Conference on Language Resources and Evaluation (LREC’00), Athens, Greece. European Language Resources Association (ELRA), 2000.; Гарабик Р., Словацкий национальный корпус. Труды международной конференции «Корпусная лингвистика–2004». Санкт-Петербург: Издательство С.-Петербургского университета, 2004. – С. 99-121.; Suleymanov D., Nevzorova O., Gatiatullin A., Gilmullin R., Khakimov B., National Corpus of the Tatar Language “Tugan Tel”: Grammatical Annotation and Implementation, Procedia - Social and Behavioral Sciences 95 (2013) 68 – 74 p.; Galieva A., Khakimov P., Gatiatullin A., On the Way to the Relevant Grammatical Tagset for the Tatar National Corpus, EPiC Series in Language and Linguistics, Volume 1, 2016, Pages 121-129.

[6] Polatov A., Muhamedova S., kompyuter lingvistikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2009. – 104-s.; Karimov S., Qarshiyev A., Isroilova G. Abdulla Qahhor asarlari tilining lug‘ati. Alfavitli lug‘at. Chastotali lug‘at. Ters lug‘at. – T., 2007; O‘zbek tili korpusining dasturiy ta’minotini yaratishning dastlabki natijalari, Tursunov M.S., Qarshiyev A.B., Karimov S.A., Muhammad al-Xorazmiy avlodlari ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jurnal, 1(15), mart, 2021; Development of a modern corpus of computational linguistics, Tursunov M.S., Qarshiyev A.B., Karimov S.A., Conference: 2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT),, DOI: 10.1109/ICISCT50599.2020.9351376, noyabr 2020.; Matlatipov S., Tukeyev U. and Aripov M. Towards the Uzbek Language Endings as a Language Resource. International Conference on Computational Collective Intelligence. Springer, Cham, 2020. pp. 729-740.; Mengliyev B. va b. O‘zbek tilining milliy korpusi // Ma‘rifat. – 26/04/2018; Менглиев Б., Ш. Ҳамроева. Лингвистик таъминот воситаларининг умумий тавсифи ҳамда тил корпусини яратишдаги аҳамияти. O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari. –Toshkent, 2019. – P.17-20.; Abduraxmonova N., Elektron korpuslarning kompyuter modellari: Filol. fan. dok. diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 74 b.; Ҳамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпуси тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан...(PhD) дисс. –Қарши, 2018. –41 б.

[7] Eshmo‘minov A. O‘zbek tili milliy korpusining sinonim so‘zlar bazasi: Filol. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. – Qarshi, 2019. – 140 b.; Axmedova D. Atov birliklarini o‘zbek tili korpuslari uchun leksik-semantik teglashning lingvistik asos va modellari: Filol. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. – Buxoro, 2020. – 156 b.; Xoliyorov O‘. O‘zbek tili ta’limiy korpusini tuzishning lingvistik asoslari. Filol. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. avtoref. – Termiz, 2021. – 53 b.; Abduraxmonova N. Elektron korpuslarning kompyuter modellari: Filol. fan. dok. diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – 74 b.; Abdullayeva O. O‘zbek tilining internet axborot matnlari korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari. Filol. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. aftoref. – Toshkent, 2022. – 54 b.; Raxmanova A. O‘zbek tili Milliy korpusini yaratishda kompyuter usullari. Filol. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. – Farg‘ona, 2022. – 52 b.; Abjalova M. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 103 b.; Elova D. O‘zbek tili korpusi birliklarining uslubiy teglarini yaratish tamoyillari va lingvistik ta’minot. Filol. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 65 b.; Xolova M. O‘zbek shevalari korpusini tuzishning lingvistik asoslari (Boysun tumani “j”lovchi shevalari misolida). Filol. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. avtoref. – Tyermez, 2022; Begmatova G. O‘zbek milliy kopusida idiomalar bazasini yaratish. Filol. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. avtoref. – Tyermez, 2021; Toirova G. O‘zbek tili milliy korpusini yaratishning nazariy va amaliy masalalari. Filol. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. – Buxoro, 2021; Xidirov O. Milliy korpus uchun Parsing dasturi yaratishning lingvistik asoslari. – Jizzax, 2021.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “O‘zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish” (2021-2023) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek tili milliy korpusini tuzish va undan foydalanishning veb sahifaga asoslangan (konkordanser, tokenayzer, lemmatayzer, razmetkalash) dasturiy ta’minot ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mavzu doirasidagi ilmiy-nazariy manbalar asosida jahon, turkiy va o‘zbek tilshunosligida mavjud korpuslarni tahlil qilish, adabiyotlarni sharhlash;

o‘zbek tili milliy korpusining dasturiy ta’minotini ishlab chiqish;

o‘zbek tili matnlarini qayta ishlash, matnlarni tokenlash, lemmalash, razmetkalash modellari va algoritmlarini ishlab chiqish;

korpus dasturiy ta’minotlari orqali matnlarni O‘zbek tili milliy korpusiga kiritish va lingvistik aspektda tahrirlash;

o‘zbek tili milliy korpusini tuzish va undan foydalanishning uchun dasturiy ta’minot yaratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Alpomish” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti (Toshkent: Sharq, 2010); Abdunazar Poyonov varianti (Toshkent: Akademnashr, 2018); Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li variantlari (Toshkent: Fan, 2018) tanlangan.

Tadqiqotning predmetini sifatida o‘zbek tili milliy korpusining modellari, algoritmlari va dasturiy ta’minoti tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot natijalarini ko‘rsatib o‘tishda modellar, algoritmlar, ma’lumotlar bazasi loyihasi, tahlil qilish metodlari va usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek tili milliy korpusi dasturiy ta’minotini yaratish orqali milliy til korpusining internet tarmog‘ida foydalanuvchiga taqdim etilishiga ko’ra Milliy korpusni yaratish, uni internet tarmog‘ida ishlashini ta’minlash, matnlarni lingvistik jihatdan tasnif etish hamda shu asosda har bir xalqning milliy tili va uning o‘ziga xos xususiyatlari sofligini saqlab qolish mumkinligi dalillangan;

o‘zbek tili milliy korpusini yaratish va boshqarishga mo‘ljallangan *uzbekcorpora.uz* dasturiy ta’minoti yaratilib, u so‘z va iboralarni korpus bo‘ylab qidirish (konkordans), razmetkasini aniqlash (so‘z morfologiyasi), lemmalash, tokenlash va chastotali lug‘atlarni yaratish kabi tarkibiy qismlardan iborat ekanligi asoslangan;

korpusni yaratishga mo‘ljallangan dasturlar va korpusdan foydalanishga xizmat qiladigan dasturlar matnlar bazasini shakllantirish, korpus lug‘atini tuzish va tahrirlash, matnlarni razmetkalash kabi vazifalarni bajarishi lingvistik aspektda dalillangan.

til korpusining dasturiy ta’minotida tanlangan matndagi so‘zlar yoki gaplarning grammatik va stilistik jihatdan xususiyatlarini samarador aniqlash va o‘zgartirish imkoniyati mavjud ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek tili milliy korpusini yaratish, mualliflik korpusini yaratish, korpusdan foydalangan holda tadqiqotlar bajarish, ushbu maqsadlarga erishish uchun loyihalashtirish, algoritmlar ishlab chiqish va dasturiy ta’minot yaratishdan iborat.

o‘zbek tili matnlarini qayta ishlash, matnlarni tokenlash, lemmalash, razmetkalash modellari va algoritmlari ishlab chiqilgan;

o‘zbek tili milliy korpusining dasturiy ta’minoti ishlab chiqilib, konkordansda mavjud kontekstlar berilgan shartlar asosida tayyorlanishi aniqlangan;

so‘zlarni morfologik (masalan, so‘z turkumlari va b.), uslubiy (masalan, publisistika, ilmiy, badiiy va b.) va davrlar (masalan, 1990-2000, 2000-2021) bo‘yicha qidirish imkoniyati mavjudligi asoslangan;

korpusning lingvistik natijalari sifatida “Alpomish” dostoni matni, uning til birliklari hamda grammatik tavsiflari dasturiy ta’minotga kiritilgan. “Alpomish” dostoni asosida korpusda lug‘at yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘yilgan muammoni hal qilishda yaratilgan dasturiy ta’minot va uning algoritmlari to‘liq va aniq ishlab chiqilganligi, ma’lumotlar bazasi loyihasi puxta loyihalanganligi, modellarni aniq ifodalanganligi hamda nazariy va amaliy bilimlarning bir-biriga mosligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, o‘zbek tili milliy korpusini yaratish va loyihalashtirish mexanizmlari, matnlarni qayta ishlash algoritmlari va milliy korpus dasturiy ta’minotining nazariy asoslaridan o‘zbek tilshunosligining zamonaviy yo‘nalishlari hisoblangan kompyuter lingvistikasi va korpus lingvistikasi bo‘yicha mavjud ilmiy nazariyalarni boyitish va to‘ldirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘zbek tili milliy korpusini yaratish va boshqarishga mo‘ljallangan *uzbekcorpora.uz* dasturiy ta’minotidan so‘z va iboralarni korpus bo‘ylab qidirish (konkordans), razmetkasini aniqlash (so‘z morfologiyasi), lemmalash, tokenlash va chastotali lug‘atlarni yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Ishlab chiqilgan dastur onlayn rejimda ishlaydigan bepul platforma hisoblanib, tilni tadqiq qilishda o‘rganuvchiga istalgan joyda, istalgan kompyuterda ishlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek lingvistik korpusini yaratish tajribasidan (konkordans, tokenayzer, lemmatayzer, razmetkalash dasturlari asosida) olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek tili milliy korpusi dasturiy ta’minotini yaratish orqali milliy til korpusining internet tarmog‘ida foydalanuvchiga taqdim etilishiga ko’ra Milliy korpusni yaratish, uni internet tarmog‘ida ishlashini ta’minlash, matnlarni lingvistik jihatdan tasnif etish hamda shu asosda har bir xalqning milliy tili va uning o‘ziga xos xususiyatlari sofligini saqlab qolish mumkinligi kabi xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan OT-F1-030 raqamli “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7 jild) chop etish” mavzusidagi fundamental grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining

2023-yil 9-sentyabrdagi 01/4-1716-son ma’lumotnomasi). Natijada matnlarni raqamlashtirish, korpusga kiritish va tadqiqotlarni takomillashtirishga erishilgan;

o‘zbek tili milliy korpusini yaratish va boshqarishga mo‘ljallangan uzbekcorpora.uz dasturiy ta’minoti yaratilib, u so‘z va iboralarni korpus bo‘ylab qidirish (konkordans), razmetkasini aniqlash (so‘z morfologiyasi), lemmalash, tokenlash va chastotali lug‘atlarni yaratish kabi tarkibiy qismlardan iborat ekanligi hamda korpusni yaratishga mo‘ljallangan dasturlar va korpusdan foydalanishga xizmat qiladigan dasturlar matnlar bazasini shakllantirish, korpus lug‘atini tuzish va tahrirlash, matnlarni razmetkalash kabi vazifalarni bajarishi haqidagi ilmiy takliflar “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining JHBL-20-sonli “Oila, mahalla va gender tengligi mavzusida badiiy asarlarning elektron korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasini bajarishda foydalanilgan (“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 4-sentabrdagi 01-09/1608-son ma’lumotnomasi). Natijada uzbekcorpora.uz yordamida badiiy asarlardagi so‘z va iboralarni qidirish, ularning kontekstida qo‘llanilishini aniqlash, konkordanslar tuzish orqali kengaytirilgan kontekstlar hosil qilish, shuningdek, so‘zlarning morfologik razmetkasini aniqlash, lemmalash va tokenlash jarayonlari orqali matnlarning tuzilishi va ularning lingvistik xususiyatlarini o‘rganish, mahalla va gender tengligi mavzusidagi asarlarning lingvistik xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish imkonini bergan;

til korpusining dasturiy ta’minotida tanlangan matndagi so‘zlar yoki gaplarning grammatik va stilistik jihatdan xususiyatlarini samarador aniqlash va o‘zgartirish imkoniyati mavjud ekanligi isbotlanganligi to’g’risida xulosalardan “Samarqand” viloyat telekanalida efirga uzatilgan “Diyor yangiliklari” kabi ko‘rsatuvining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 20-apreldagi 01-07/138-son ma’lumotnomasi). Natijada keltirilgan ma’lumotlar ilmiy dalillar bilan boyitilib, ko‘rsatuvlar mazmuni ma’rifiy va amaliy jihatdan mukammallashuvi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari bo‘yicha 13 ta xalqaro va 19 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruzalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 1 ta Scopus bazasida mavjud jurnalda, 5 ta respublika hamda 5 ta xorijiy jurnallarda e’lon qilingan. 5 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalar uchun guvohnomalar olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, uning umumiy hajmi 120 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek tili milliy korpusini loyihalash”** deb nomlangan birinchi bobida korpus tushunchasi va uning turlari yoritilgan. Slavyan tillar va turkiy tillar korpuslari o‘rganilgan. O‘zbek tili milliy korpusining loyihalash, razmetkalangan korpus modellari hamda korpus yaratish bosqichlari bayon qilingan.

Birinchi bobning birinchi fasli **“Korpus tushunchasi va uning turlari”** deb nomlanib, unda korpus lingvistikasi, korpus turlari va o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan.

Lingvistik korpus – bu ma’lum bir tamoyillarga asosan jamlangan va umumiy standartlashtirilgan razmetkaga ega bo‘lgan matnlar majmuidir. Dastlab korpus (“Birinchi darajadagi korpus”) deganda biror bir umumiy xususiyatni (til, janr, muallif, davr) birlashtiradigan matnlar to‘plami tushunilgan. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari katta hajmli matnlarga lingvistik ishlov berish jarayonlarini bir necha bor soddalashtirish va tezlatishga imkoniyat yaratdi hamda korpus tushunchasining mazmunini o‘zgartirdi. Zamonaviy korpus – bu muayyan bir tilning elektron shakldagi matnlar to‘plamiga asoslangan elektron axborot-ma’lumot tizimidir. Har bir korpus matnlar ustida filologik yondashuv bilan ishlashga xizmat qiladigan lingvistik va dasturiy ta’minotga ega.

Lingvistik korpuslarga namuna sifatida quyidagi eng taniqli va tan olingan korpuslarni keltirish mumkin: Rus tili milliy korpusi (*https://ruscorpora.ru/*), Britaniya milliy korpusi (*http://www.natcorp.ox.ac.uk/*, *https://www.english-corpora.org/bnc/*), Turk tili milliy korpusi (*https://www.tnc.org.tr/*), Amerika milliy korpusi (*http://www.anc.org/)* va boshqalar.

Ma’lumotlarni qayta ishlash va natijalarni tushunarli tarzda taqdim etishga xizmat qiluvchi dasturiy vositalarsiz til korpuslarini yaratib bo‘lmaydi. Ma’lum bir maqsadlarga mo‘ljallangan til korpuslari mavjud (*WordSmith Tools, MonoConc Pro, WordPilot*). Ular tilni keng qamrovda o‘rganishga imkon bermaydi. Milliy korpuslar tilning morfologik, semantik, sintaktik jihatlarini o‘rganishga, til bo‘yicha turli tahlillarni olishga va tilni keng tadqiq qilishga yordam beradi. Korpus funksionalligi tushunarli, sodda va qulay bo‘lgan interfeysga ega bo‘lishi lozim.

Matnlar korpusini tilshunos qo‘lidagi kuchli ish quroli deb aytish mumkin. Lingvistik korpus yordamida tilni tahlil qilish va o‘rganish orqali uning qonuniyatlarini tadqiq etish bilan shug‘ullanadigan fan – bu *korpus lingvistikasidir*. Korpus lingvistikasi tilshunoslikning bir bo‘lagi bo‘lib, kompyuter lingvistikasi va amaliy lingvistikaning yangi bir yo‘nalishini tashkil qiladi. Korpus matnlarning oddiy to‘plamlaridan (“kutubxona”, kolleksiya) farqli ravishda ular *razmetka*langan bo‘lishini talab etadi.

Korpus lingvistikasi ikkita ko‘rinishni o‘z ichiga oladi:

- matnlar korpuslarini yaratish va razmetkalash hamda ular uchun qidiruv vositalarini ishlab chiqish;
- korpuslar asosida tilshunoslik tadqiqotlarini olib borish.

Birinchi bobning ikkinchi fasli **“Mavjud til korpuslari tahlili”** deb nomlanib, unda slavyan va turkiy tillariga oid til korpuslarining dasturiy ta’minotlari, yaratish usullari tahlilga tortilgan.

Slavyan tillarga tegishli korpuslarni loyihalash nuqtayi nazaridan quyidagi til korpuslari oʻrganilgan va tahlil qilingan: **Rus tili milliy korpusi** – bu rus tilidagi matnlarni qidirish mumkin boʻlgan elektron onlayn korpus. U 2004-yil 27-aprelda tashkil etilgan[8]. Milliy korpusda cherkov slavyan, qadimgi rus (XI-XIV asrlar) va markaziy rus (XV-XVIII asr boshlari) matnlarining tarixiy korpusi ham mavjud. **Belarus tili milliy korpusi** – Belarus tilining umumiy kompyuter ma’lumotlar bazasini yaratish zarurati 2001-yilda Milliy akademiyasi Yakub Kolas nomidagi Tilshunoslik institutida boshlangan *“Belarus tilining lingvistik reprezentativligi muammosi va Belarus tilining korpusini qurish tamoyillari”* dasturi davomida paydo boʻldi. **Bolgar tili milliy korpusi –** Bolgar tili institutida prof. L.Andreichin boshchiligida “Kompyuter tilshunosligi va Bolgariya leksikologiyasi va leksikografiyasi” boʻlimi tadqiqotchilari tomonidan Bolgariya milliy korpusi tashkil etilgan. **Slovakiya tili milliy korpusi** asosan turli uslublar, janrlar, mavzular boʻyicha 1955-yillardagi slovakcha matnlarni oʻz ichiga olgan elektron ma’lumotlar bazasidir. Chex tili milliy korpusi Pragadagi Karl universiteti tomonidan yuritiladigan, chex tilidagi elektron shakldagi yozma matnlarning ochiq qidiriladigan ma’lumotlar bazasidir. Sayt chex va ingliz tillarida mavjud. **Polyak tili milliy korpusi** (*http://nkjp.pl/index.php?page=0&lang=1)* toʻrtta muassasaning umumiy tashabbusidir: Polsha Fanlar akademiyasining kompyuter fanlari instituti (koordinator), Polsha Fanlar akademiyasining Polsha tili instituti, Polsha ilmiy nashriyoti va Lodz universitetining Hisoblash va korpus lingvistikasi kafedrasi. Milliy korpus Fan va oliy ta’lim vazirligining ilmiy-tadqiqot loyihasi sifatida amalga oshirilgan.

Turkiy tillar hozirgi va qadimgi turkiy xalqlar va elatlarning tili boʻlib, Sibirdan Bolqon yarim oroligacha bir chiziq boʻylab choʻzilgan ulkan geografik hududda tarqalgan oʻzbek, uygʻur, qozoq, qirgʻiz, qoraqalpoq, saxa (yoqut), tuva, xakas, oltoy, karagas, shor, turkman, ozarbayjon, turk, qoraogʻuz, tatar, boshqird, chuvash, qoʻmiq, noʻgʻay, qorachoy bolqor, tofalar, chuvash kabi 25 dan ortiq til tushuniladi. **Turkiy tillarga** tegishli korpuslarni loyihalash nuqtayi nazaridan quyidagi til korpuslari oʻrganilgan va tahlil qilingan: **Turk tili milliy korpusi** (*https://www.tnc.org.tr/*) zamonaviy turk tili uchun muvozanatli, katta hajmdagi (50 million soʻz) va umumiy maqsadli korpus boʻlishi uchun moʻljallangan. Turk Milliy Korpusi (*TMK*) loyihasi Mersin universiteti tilshunoslari jamoasi tomonidan ishlab chiqilgan va Turkiya Ilmiy va texnologik tadqiqot kengashi tomonidan uch yil muddatga (2008-2011) moliyalashtiriladi[9]. **“Tugan Tel” tatar tili milliy korpusi** zamonaviy adabiy tatar tilining lingvistik manbasidir. Loyiha “2014-2020-yillarda Tatariston Respublikasining davlat tillarini va Tatariston Respublikasida boshqa tillarni saqlash, oʻrganish va rivojlantirish” Davlat dasturi doirasida amalga oshirilmoqda. **Qozoq tili milliy korpusi** (*http://qzcorpus.kz)* ning

[8] https://ruscorpora.ru/new/archive.html.

[9] Yeúim Aksan & Mustafa Aksan, Building a National Corpus of Turkish: Design and Implementation, p:299-309.

hajmi 30 million tokenni tashkil etadi, jumladan, 14 million token hajmli matn materiali, meta-teglar bilan ta’minlangan.

O‘zbek tilshunosligida ham korpus lingvistikasi sohasi jadal rivojlanmoqda. Jumladan Samarqand davlat universiteti va Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali hamkorligida “O‘zbek tili milliy korpusi” loyihasi (http://uzbekcorpora.uz/)[10], Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi” loyihasi (https://uzschoolcorpara.uz/)[11], O‘zbekiston milliy universitetida “O‘zbek tili korpusi” loyihalari (https://uzbekcorpus.uz/newIndex)[12] bajarilmoqda.

Mavjud korpuslarni tahlil qilish natijasida ko‘rish mumkinki, korpuslarni qurishda barcha tillar uchun yagona bo‘lgan metodologiya mavjud emas. Buning sababi shundaki, turli tillarda turli xil qoidalar, texnologik jarayonlar amal qiladi. Morfologik tavsiflar to‘plamlari turlicha bo‘lishiga qaramasdan, yuqorida qarab chiqilgan korpuslarning barchasida morfologik (yoki grammatik) razmetka ta’minlangan. Sintaksis razmetka esa ba’zi korpuslarda bor, lekin turlicha yondoshuvlar asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, ba’zilarida umuman yo‘q. Korpuslarni tilni qamrab olish darajasi bo‘yicha solishtirganda, rus tili milliy korpusini ham xronologiya, ham janrlararo eng muvozanatlashgan va matnlar xilma-xilligi ta’minlangan korpus deb hisoblash mumkin. Lekin rus tili milliy korpusining bu yutug‘i uning asosiy kamchiligini ham yuzaga keltirgan. Har qanday yirik korpusda to‘liq va aniq razmetkalashning imkoniyati cheklangan bo‘ladi. Noaniqliklar, asosan, avtomatik razmetkalashda omonim so‘zlar tufayli paydo bo‘ladi.

Birinchi bobning uchinchi fasli **“O‘zbek tili milliy korpusini loyihalash: razmetkalangan matn korpusi modeli va bosqichlari”** deb nomlangan bo‘lib, unda korpus yaratish dasturiy ta’minotini loyihalash, korpus tarkibida matnlar bilan ishlash modellarini ishlab chiqish va uni yaratish bosqichlari yoritilgan.

Korpus yaratishda turli xil razmetkaning bo‘lish yoki bo‘lmasligini va agar bo‘lsa, uning aniqlik darajasini hisobga olish maqsadga muvofiq. Filolog mutaxassis har bir matnning razmetkalanishini so‘zma-so‘z sinchiklab tekshirishi, avtomatik razmetka xatolarini tuzatishi va omonim holatlarni bartaraf qilishi kerak. Ishning asosiy qismi qo‘l mehnati orqali bajarilishi mumkin. Shuning uchun filolog mutaxassisning kompyuterdagi ishiga mo‘ljallangan maxsus razmetkalash dasturlari yaratilishi zarur.

Korpus modelining sxematik shakli 1-ilovada tasvirlangan[13].

Korpusni T_i matnlarning jamlanmasi deb qaraymiz. Matn esa p_{ik} tinish belgilari, probel yoki satr oxiri belgilari bilan o‘zaro ajratilgan w_{ij} so‘zlar ketma-ketligidan iborat[14]:

$$Corpus = \{T_1, T_2, \ldots, T_n\},$$

[10] http://uzbekcorpora.uz/, murojaat sanasi: 26.01.2024

[11] https://uzschoolcorpara.uz/, murojaat sanasi: 26.01.2024

[12] https://uzbekcorpus.uz/newIndex, murojaat sanasi: 26.01.2024

[13] Седов А.В., Математические модели, методы и алгоритмы построения размеченных корпусов текстов, Петрозаводск, 2013. –С. 23.

[14] Седов А.В., Математические модели, методы и алгоритмы построения размеченных корпусов текстов, Петрозаводск, 2013. –С. 23.

$$T_i=\{w_{ij}\}U\{p_{ik}\},$$

yerda j- w_{ij} so‘zning i-matndagi o‘rnini, k- p_{ik} tinish belgining o‘rnini bildiruvchi qiymat. Shuningdek, har bir so‘zga uning matndagi joylashuv o‘rni mos qo‘yiladi:

$$Dispostion{:}w \rightarrow positions \in Positions,\ Positions= Pos1,\ Pos2,\ \ldots,\ Posq,$$

bu yerda w co‘z uchun uning matndagi koordinatasi q aniqlanadi. Matndagi boblar, paragraflar, abzaslar, gaplar, gap bo‘laklari – uning qo‘shimcha tuzilmaviy birliklaridir. Model matnning eng kichik tuzilmaviy birliklaridan (so‘zlardan) so‘z birikmalari hosil bo‘lishini inobatga oladi. Gapni so‘zlar to‘plami deb qaralsa, har bir so‘z birikmani qismiy to‘plam deb hisoblash mumkin:

$$SSj= wi1,\ wi2,\ \ldots,\ wik \subset S, \text{ bunda } \bigcup jSSj=S.$$

Har bir so‘z faqat bitta so‘z birikmasi tarkibiga kirishi mumkin, shuning uchun ikkita birikmaning kesishmasi bo‘sh to‘plamdan iborat bo‘ladi:

$$SSk \cap SSj=\emptyset, \text{ bunda } k \neq 1.$$

Har bir so‘z uchun matndagi o‘rnidan tashqari uning morfologik parametrlari to‘plami ham aniqlanishi kerak. Ot so‘z turkumiga tegishli so‘z uchun bu parametrlar – kelishik, son (birlik/ko‘plik), jonli/jonsiz.

Korpusni yaratish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat:

1) ma’lumotlarni to‘plash: korpusga kiritiladigan matnlar ro‘yxatini tuzish, ularning manbasini aniqlash;

2) ma’lumotlarni kompyuterlashtirish: tanlangan ma’lumotlarni (elektron matnlar, skanerlangan matnlar, klaviaturadan terilgan matn va h.k.) yuklash;

3) metama’lumotlarni kodlashtirish: tanlangan matn haqidagi metama’lumotlarni yozish;

4) ma’lumotlarni razmetkalash: matnning hamma birliklarini teglash;

5) korpusda qidiruv interfeysini ishlab chiqish: korpusdan ma’lumotlar olishni qulaylashtiradigan va yengillashtiradigan grafik veb-interfeys yaratish;

6) korpusni ishga tushirish: dastlab sinov tariqasidagi versiyani, so‘ngra milliy va xalqaro darajada foydalanishga mo‘ljallangan birinchi versiya ishini yo‘lga qo‘yish.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbek tili milliy korpusining dasturiy ta’minoti”** deb nomlanadi. Ushbu bobda o‘zbek tili milliy korpusining dasturiy ta’minoti strukturasi va vazifalari, matnlar bazasini shakllantirish, korpus lug‘atini shakllantirish va tahrirlash, korpusga matnlar kiritish va matnlarni razmetkalash dasturlarining ishlash algoritmlari ko‘rib chiqilgan va tavsiflangan. Shuningdek, dasturiy ta’minot uchun internetdan foydalanish hamda dasturiy ta’minotning foydalanuvchi va boshqaruv interfeyslari tavsiflangan.

Ikkinchi bobning **“Dasturiy ta’minot strukturasi va vazifalari”** deb nomlangan birinchi faslida O‘zbek tili milliy korpusi dasturiy ta’minotining strukturasi va vazifalari, matnlar bazasini shakllantirish, korpus lug‘atini shakllantirish va tahrirlash, korpusga matnlar kiritish va matnlarni razmetkalash dasturlari yoritilgan.

O‘zbek tili milliy korpusi modeli va uni yaratish uchun bajariladigan ishlar bosqichlariga bog‘liq holda ikki qismdan iborat dasturiy ta’minot strukturasi ishlab chiqildi (*2-ilova*):

1) korpusni yaratishga mo‘ljallangan dasturlar;

2) korpusdan foydalanishga xizmat qiladigan dasturlar.

Korpusni yaratishga moʻljallangan dasturlar matnlar bazasini shakllantirish, korpus lugʻatini shakllantirish va tahrirlash, matnlarni razmetkalash kabi vazifalarni bajara olishi kerak (*3-ilova*).

Matnlar bazasini shakllantirishda quyidagi ishlar bajarilishi zarur:

- matnlarni raqamlashtirish, ularni tahrirlash;
- matn boʻyicha ma’lumotlarni faylga yozish;
- matnni bazaga kiritish.

Matnlarni raqamlashtirish vositalarini ularning dastlabki holati qaysi manbada (qogʻoz, **.pdf* formatdagi fayl) ekanligiga bogʻliq holda tanlaymiz.

Metarazmetka ma’lumotlari matn boʻyicha umumiy ma’lumotlardan iborat boʻlib, quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- matn nomi;
- matn muallifiga oid ma’lumotlar: ismi va familiyasi, jinsi, tugʻilgan sana va yili va h.k.;
- matn yozilgan vaqt;
- tematika va matn turi;
- janr;
- matn hajmi (soʻzlarda).

Dastur ushbu ma’lumotlarni foydalanuvchi tomonidan kiritilishini ta’minlaydi va ularni *MeteRazm* faylga yozib qoʻyadi. Soʻngra kiritilgan metarazmetka ma’lumotlar asosida maxsus yagona ism shakllantiriladi va matn saqlanib turgan **.docx* fayl shu ism bilan *Matn_Baza* papkaga koʻchirib yoziladi.

Matnni tokenlash. Matnni avtomatik qayta ishlashda, birinchi navbatda, undagi soʻzlarni ajratib olish, yoki boshqacha aytganda, matnni birliklarga boʻlaklash masalasi yuzaga keladi. Buning uchun ajratuvchi belgilarni (probel, tinish belgilari va h.k.) oʻz ichiga olmagan hamma qismiy satrlar matndan ajratilib olinishi lozim. Bu esa tokenlar toʻplami boʻladi[15]. Matnlarni avtomatik qayta ishlashning fundamental algoritmlaridan biri, berilgan matnni tokenlarga boʻlib tashlashdan iborat. Algoritm kirishiga matn berilib, chiqishida matndagi tokenlar roʻyxati olinadi. Bu algoritmni amalga oshiruvchi dasturni tokenayzer deb atashadi. Odatda, tokenlar soʻz shakllari bilan bir xil ma’noni beradi. Lekin leksik birliklarni ifodalash uchun “soʻz” emas, balki “token” termini ishlatiladi. Bunga sabab, ba’zi hollarda token sifatida soʻzdan kichikroq birliklar (alohida morfema) yoki soʻzdan kattaroq birliklar (soʻz birikmalari) ishlatilishi mumkin.

Matndagi soʻzlarning turli roʻyxatlarini tuzish. Bu yerda maqsad – matnning lugʻatga kiritilishi lozim boʻlgan birliklarini (soʻzlar, soʻz shakllari) ajratib olish, ularning roʻyxatini qilish va roʻyxatni foydalanuvchi talabi bilan turli shakllarda (alfavit-chastotali tartibdagi, chastota-alfavit tartibdagi va ters roʻyxat) taqdim etish. *Gram_Lugat* dasturning bu vazifani bajarishga mos moduli *Suz_Rhati* deb nomlanib, uning kirishida matndan ajratilgan tokenlar roʻyxati

[15] Николаев И.С., Митренина О.В., Ландо Т.М. (ред.) Прикладная и компьютерная лингвистика, Ленанд, 2016. - 320 с. - ISBN 978-5-9710-3472-8.

bo‘lsa, chiqishida so‘z va so‘z shakllarining tartiblangan ro‘yxati bo‘ladi. Bu ro‘yxatni shakllantirish uchun dastur grammatik lug‘at fayli *LUGAT*dan foydalanadi. Kirishda berilgan har bir token mavjud *LUGAT* fayldan izlab ko‘riladi. Agar token lug‘atdan topilsa, demak, uni lug‘atga kiritish zaruriyati yo‘q, tashlab yuborish mumkin. Aks holda, ya’ni token lug‘atdan topilmasa, u so‘z yoki so‘z shakli ekanligi tekshiriladi. So‘z yoki so‘z shakli bo‘lgan tokenlar alohida ro‘yxatga kiritiladi. Bu ro‘yxat foydalanuvchi talabiga mos holda, yo alfavit-chastotali tartibda, yo chastota-alfavit tartibda, yo ters ro‘yxat shaklida saralanadi va ekranga chiqariladi.

So‘zlarni grammatik lug‘atga kiritish. Bu vazifani bajaruvchi dasturiy modul *Lug_Kirit* deb nomlangan. Lug‘atga yangi birlik kiritish foydalanuvchi tomonidan interaktiv rejimda amalga oshiriladi. Bu jarayonni *Lug_Kirit* dasturi ta’minlaydi. Kompyuter ekranida *Suz_Rhati* dasturi tomonidan chiqarilgan ro‘yxat mavjud va unda bitta so‘z boshqa rang bilan ajratib ko‘rsatilgan. *Lug_Kirit* dasturi yordamida foydalanuvchi ro‘yxat bo‘yicha harakatlanib, joriy so‘zni tanlaydi va “*Enter*” tugmasini bosadi. Natijada ekranda kiritish oynasi paydo bo‘ladi. Foydalanuvchi bu oynada so‘ralgan ma’lumotlarni klaviaturadan terib kiritadi va “*Bazaga kiritish*” tugmasini bosadi. Shunda tanlangan so‘z va unga mos kiritilgan grammatik xarakteristikalar jamlanib, elektron lug‘at fayli *LUGAT*ga va boshqa yordamchi fayllarga yozib qo‘yiladi. Shundan so‘ng foydalanuvchi ro‘yxatdan navbatdagi so‘zni tanlaydi va bazaga kiritadi. Shu tariqa, berilgan ro‘yxatdagi barcha so‘zlar *LUGAT* faylga kiritilib, gramatik lug‘at qadamma-qadam boyitib boriladi.

Grammatik razmetkalash dasturi *Nuxt JS, Python* va *PostGreSql* ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimida (MBBT) tuzilgan. Matnlarni korpusga kiritish jarayonini soddalashtirish uchun grammatik razmetkalash ikki bosqichda bajariladi: matnni dastlabki formatlash bosqichi va razmetkalash bosqichi. Dastlabki formatlash bosqichida matnning tuzilmaviy komponentlari aniqlanadi, ya’ni matnda so‘zlar, gaplar, abzaslar va paragraflar ajratiladi. Shuningdek, so‘zlarning matndagi o‘rni aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda grammatik razmetkalash amalga oshiriladi. Razmetkalash natijasida matndagi har bir so‘z shaklga o‘zining morfologik parametrlari va satrli atributlari to‘plami biriktirib chiqiladi. Quyida bu ikkala bosqichning grammatik razmetkalash dasturi orqali bajarilishi batafsil bayon qilinadi.

Dastlabki formatlash bosqichi. Bu bosqichda korpusga kiritiladigan fayl dastlab qanday shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar, u *MS Word* dasturi formatiga o‘tkazilishi kerak. *MS Word*ning 2007 va undan yuqori versiyalarini ishlatish zarur, chunki ularda matn **.docx* formatda bo‘lib, standart tizim asosida avtomatik ravishda teglangan holda bo‘ladi. Matnni tuzilmaviy komponentlarga (so‘zlar, gaplar, abzaslar, pargraflar) bo‘lish *MS Word* dasturi tomonidan avtomatik tarzda bajariladi. Matnda so‘zlarning o‘rnini bildiruvchi ma’lumotlar alohida faylga yoziladi.

Razmetkalash bosqichi. Razmetkalash deb matnga va uning komponentlariga maxsus teglarni biriktirib chiqishni tushunish kerak. Maxsus teglar ikki xil bo‘ladi: lingvistik teglar va ekstralingvistik (tashqi) teglar. Lingvistik teglar matn elementlarining leksik, grammatik va shunga o‘xshash boshqa xususiyatlarini tavsiflaydigan ma’lumotlardan iborat. Ekstralingvistik teglar esa muallif haqidagi va matn haqidagi ma’lumotlarni (muallif, nomlanishi, nashr yili va joyi, janr, tematika va hokazo) tavsiflaydi[16].

Dasturiy ta’minot foydalanuvchiga korpus tarkibidagi matnlar ustida tilshunoslikka oid tadqiqotlar olib borish va shu asosda xulosalar chiqarishga imkoniyat yaratishi kerak. Xususan, korpus foydalanuvchisi tomonidan dasturiy ta’minotga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- konkordans tuzish;
- kontekstlarni nafaqat so‘zlar bo‘yicha, balki so‘z birikmalari bo‘yicha ham izlash;
- ro‘yxatlarni foydalanuvchi tomonidan tanlangan bir necha me’yorlar bo‘yicha tartiblash;
- topilgan so‘z shakllarini kengaytirilgan kontekstda tasvirlash imkoniyatini berish;
- korpusning alohida elementlari bo‘yicha statistik ma’lumotlar berish;
- natijalarni saqlash va chop qilish;
- nafaqat alohida fayllar bilan, balki o‘lchovi chegaralanmagan korpuslar bilan ham ishlay olish;
- so‘rovlarga tez javob qaytarish va natijalarni tez chiqarish.

Umumiy holda, bu vazifalarning bajarilishi tadqiqot uchun zaruriy axborotlarni topish, ularni to‘plash va kerakli tarzda foydalanuvchiga taqdim etish kabi jarayonlardan iborat bo‘ladi. Bu jarayonlarni amalga oshirish uchun korpus bo‘ylab axborot qidiriuv masalasi hal etilishi kerak.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli **“Dasturiy ta’minot interfeysi”** deb nomlanib, unda til korpusi uchun internet tarmog‘ining afzalliklari, ishlab chiqilgan dasturiy ta’minotning yaratilgan korpusdan foydalanish hamda korpus yaratish kabi funksiyalari bayon etilgan.

Internetda ilmiy tadqiqotlar natijalarini taqdim etish foydasiga bir nechta dalillar keltirilishi mumkin[17]. *Birinchidan,* bugungi kunda hech bo‘lmaganda mamlakatimizda ilm-fanning pragmatik darajaga o‘tishi, ya’ni ilmiy faoliyat natijasi jamiyat uchun zarur bo‘lgan haqiqiy ilovalar bo‘lishi kerak. Bunday holatda, internet orqali ilmiy tadqiqotlar taqdimoti ilmiy fikrning mahsulotini har tomonlama namoyish etishga yordam beradi. Turli xil *World Wide Web* xizmatlari orqali fikrlarni potensial mijozlar va manfaatdor tomonlarga yetkazish imkoniyati yaratiladi. Binobarin, internet tadqiqotchining marketing agenti bo‘lib xizmat qiladi hamda shakllantiradi. *Ikkinchidan,* internetda ilmiy ish natijalarini taqdim etish, masalan, veb-sayt shaklida tadqiqotni tizimlashtirish vazifasini bajaradi. Sayt tuzilishini o‘ylab, tadqiqotchi bilmasdan to‘plangan ilmiy materiallarni tasniflaydi

[16] Николаев И.С., Митренина О.В., Ландо Т.М. (ред.) Прикладная и компьютерная лингвистика, Ленанд, 2016. – 320 с. – ISBN 978-5-9710-3472-8.

[17] Green, L. The Internet: An Introduction to New Media/ L.Green. – New York: Berg, 2010; Silver, D. Critical Cyber culture Studies / D.Silver, A.Massanary. – New York: New York University Press, 2006; Браславский, П.И. Методы повышения эффективности поиска научной информации (на материале Internet).: автореф. дис... .канд.тех.наук. 05.13.16 / П. И. Браславский. — Екатеринбург, 2000. — 16 с.

va tizimlashtiradi, uni obyektiv qo‘shimcha ishlov berishga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan internet jurnallarda nashrlar, konferensiyalarda ma’ruzalar olimning faoliyatini baholash mezonlari bilan teng huquqli bo‘ladi. Shuningdek, internet vositalari amaliy forumlarni tashkil qilish imkonini beradi. Unda munozaralar natijasida tadqiqotning istiqbolli yo‘nalishlarini ishlab chiqish, uning ta’sirini baholash, ya’ni ilmiy ishni har tomonlama tahlil qilish mumkin bo‘ladi.

O‘zbek tili milliy korpusidan foydalanish uchun internet tarmog‘iga ulanib, brauzer ochiladi hamda http://uzbekcorpora.uz/ yoki http://www.uzbekcorpora.uz/ havolasi orqali dasturga o‘tiladi (*4-ilova*).

Dasturning asosiy oynasi menyu panelidan, dasturning muhim qismiy dasturlariga o‘tish, foydali saytlarga o‘tish hamda o‘zbek tili bo‘yicha yangiliklardan iborat. Dasturiy ta’minotdan foydalanish bo‘yicha kengaytirilgan ma’lumotlar dissertatsiya ishida o‘z aksini topgan.

“Matnlar korpusini yaratish va tadqiq etish” deb nomlangan uchinchi bobda korpus uchun matnlar to‘plamini yig‘ish, raqamlashtirish va formatlash usullari keltirilgan. Korpus yordamida til bo‘yicha tadqiqot bajarish uchun konkordans tuzish va uni tahlil qilish dasturining algoritmlari sharhlangan, optimal metodlar foydalanilgan va dasturiy ta’minotda natijalar olish tavsiflangan. Tadqiqot obyekti bo‘lgan “Alpomish” dostoni matnlarining korpusga kiritish, alfavit va chastotali lug‘atlari tuzilgan hamda statistik tahlillari olingan.

Uchinchi bobning birinchi fasli **“Matnlar to‘plamini yig‘ish, raqamlashtirish va formatlash”** deb nomlanib, ushbu faslda matnlarni to‘plash, raqamlashtirish va uni dastur formatiga tushurish kabi ma’lumotlar berilgan. Korpus yaratish jarayonida matnlarning tanlangan to‘plami qanday shaklda ekanligi muhim ahamiyatga ega. Matnni korpus tarkibiga kiritishda u bir necha bor shakl o‘zgartishlarga duch keladi. Korpus uchun matn tayyorlash quyidagi bosqichlardan iborat:

1) matnni dastlabki razmetkalash – uni minimal *HTML* formatga o‘tkazish;
2) morfologik razmetkalash;
3) matnning metama’lumotlarini kiritish;
4) matnni korpus tarkibiga kiritish.

